



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/3

TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'limgan MChJ	07.00.00 – TARIX FANLARI	
Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich	Allamuratov Sh. A. XIX Asr ikkinchi yarmi – Xx asr boshlariga oid manbalarda Amudaryo suv yo'lining yoritilishi	7
Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori	Babayev S. T. Jahon madaniy merosi: xalqaro prinsiplar va tashkilotlar, madaniy merosni saqlash strategiyasida YUNYESKOning fundamental roli.	13
Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich	Haitov J. Sh. O'zbekistonda yangi ekin navlarini yetishtirishda ilmiy muassasa va stansiyalarning faoliyati tarixiga doir	21
Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna	Nazarov A. A. Turkiston maktablarining tashkil etilishi yo'naliishlari va pedagogik xususiyatlari (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlari)	28
Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich	Tog'ayev Z. T. Farg'ona viloyatida xayr-ehson jamiyatlari faoliyati tarixi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari)	34
Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy	10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Telefon: +998(90)744-00-22	Bo'riyev I. E. O'zbek tilida leksik - semantik munosabatlarga ko'ra iboralar tavsifi	39
E-mail: eirjurnal2020@gmail.com	Ismoilov Q. R.A.Nikolson – tasavvufshunos (R.Nikolsonning hayoti, ijodi va tasavvufta'lomitiga munosabati)	45
Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz	Juraev Z. N. Some major meanings of the numeral «ming» (thousand) in the proverbs of english and uzbek	50
Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan	Nazarova Dunyogozal Baxtiyarovna Hujjat va hujjatshunoslikning umumiy qonuniyatini ishlab chiqishdagi muammolar	55
Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2023 y. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar	Tursunov R. M. G'azal va taxmis: ijtimoiy dard hamda ishqiy iztirob kesishgan sarhad	60
Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqами bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan	Туйлиева Л. А. Методы исследования глаголов состояния	65
Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi	13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi	Achilova Mavluda Sa'dullayevna Qo'lmehnati orqali o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pyedagogik xususiyatlari va omillari	75
Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'ulidir	Akramova Gulbahor Renatovna O'quvchida tanqidiy tafakkurning rivojlanishi – ijtimoiy munosabatlarga tayyorlik kafolati	82
Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va oyda 1 marta chop etildi.	Axatkulov A. A. Dasturiy ta'lim vositalari talabalar ilmiy-tadqiqot kompetentsiyasini shakllantirish vositasi sifatida	88
«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi	Aytbayev D. T. Intonatsiya lisoniy faktor sifatida mutaxassislik fanlar orqali texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	92
	Axmedova Z. A. Teatr san'ati - yoshlar ma'naviy olami, ong va tafakkurini rivojlantirish vositasi	95
	Berdaliyeva Gulasal Umumiyl o'rta ta'lim muassasalari pyedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining axborot-ta'lim muhiti	99



Berdaliyeva Gulasal Umumiyl o'rta ta'limg muassasalari pyedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining axborot-ta'limg muhiti	99
Dilova N. G. Shaxslararo munosabatlar to'g'risida sharq mutafakkirlarining ilmiy-pedagogik ta'lomi	106
Djurayeva D Sh. Talabalarning ijodiy imkoniyatlarini shakllantirishning mohiyati.	113
Ergasheva M. A. Talabalarning ijtimoiy faoliik kompetensiyalarini takomillashtirishning ijtimoiy pedagogik zaruriyati	118
Eshquvvatov U. A. Mutaxassislik fanlar orqali texnika oliv ta'limg muassasalari talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	123
Fayziev Y. Z. Jismoniy tarbiya darslarida ta'limg samaradorligini oshirishda sportning milliy turlaridan foydalanish.	128
Irisboyeva Y. U. Kommunikativ faoliyat darajalari va kommunikatsiya turlari mohiyati.	137
Jumaev R. G'. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak siyosatshunoslarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish modeli	141
Jumayev S. B. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 11-12 yoshli kurashchilarining umumiyl jismoniy tayyorgarligi dinamikasi	147
Kazakov Sh. N. Jismoniy tarbiya misolida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini qaror toptirishning didaktik asoslari	153
Mamatov D. K. Talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda chizmachilik fanining o'rni	158
Mirzayev M. Sh. "Milliy o'quv dastur" fizika ta'limi zamonaviy fikrlash uslubining asosi sifatida	164
Muxamedov Sh. M. Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli	169
Nuradilova A. D., Formation of speaking competences of students in teaching mother language science in primary grades	176
Nuraliyeva O'. Sh. Kurashchilarining tayyorgarligini aylanma mashg'ulot uslubi yordamida rivojlantirish	179
Садыков Р. М. Лингвометодическая подготовка студентов педагогических вузов в структуре педагогической деятельности будущих учителей начальных классов	185
Qodirova G. A. Texnika yo'nalishi oliv ta'limg muassasalari talabalariga chet tilini o'rgatishda interfaol texnologiyalardan foydalanish metodikasi	196
Qurbanov J. A. Bo'lajak o'qituvichlarda intellektual madaniyatni rivojlantirishda integrativ yondashuvning mazmun-mohiyati va kontseptual asoslari	202
Qosimov F. Qosimova M. Boshlang'ich sinflarda matematik masalalarni yechishga o'rgatishda innovatsion yondashuv	208
Raxmatov O. U. Kollaboratsiya – bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirishning muhim vositasи sifatida	214
Raxmonov O. M. Axborot texnologiyalari vositasida talabalarni kasbiy sifatlarni takomillashtirish	220
Shadmankulova D. X. The role of school experience in the development of linguistic competences	225
Tog'ayeva U. Sh. "Ona tili o'qish metodikasi" modulini kredit-modul tizimi asosida o'qitish imkoniyatlari	231
Tojiyeva M. V. Janubiy Koreya tajribasi misolida xodimlarni boshqarish yo'llari	238
Turayev X. A. Chizmachilik darslarini "effective practical project" innovatsion ta'limg texnologiyasi asosida tashkil etish metodikasi	243
Xasanova G. I. Oliy ta'limg muassasalari o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini integrativ yo'nalishda takomillashtirish	253

Xasanova M. Z. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida "kompozitsiya" fanini o'qitishning pedagogik nazariya hamda badiiy ta'lim amaliyotidagi holatining tahlili	258
Xaydarova R. A. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishda Xitoy tajribasi	263
Xudoynazarova G. A., Safarova N. S., Rashidova R. O. "Geterofunksional birikmalar metabolitlar va dori vositalari sifatida" mavzusida kreativ usullarni qo'llash	269
Xurramov Jasur Kuyliyevich Jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda aylanma mashg'ulot uslubidan foydalanish	278
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Axmedova Z. J. Talabalarning oliy ta'limga moslashuv jarayonining o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	283
Azimova K. K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlari shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning o'rni	290
Аскарова Г.У. Особенности копинг-поведения у врачей в трудных ситуациях	294
Baybayeva M. X., Imomov I. A. Nizoli vaziyatlarni hal etishda rahbarlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish	298
Bo'tirova D. B. Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy - psixologik asoslari	303
Sobirova D. A. Tibbiyot xodimlarida sosial intellyekt omillarini namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari	307
Elov Z. S. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda suisidal axloq psixologiyasi	313
Ismatullayeva G. E. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'yinining psixologik xususiyatlari	319
Maxmudova D. A. O'spirin yoshidagi odam saydosi jabrdiyaldalarida namoyon bo'ladigan xavotirlik holatlarining psixokorreksiysi xususiyatlari	324
Nuraliyeva D.M., Muydinova Z. A. Jamiat ijtimoiy jarayonlarining o'zaro ta'siri tizimida oila va nikoh munosabatlarining ahamiyati	328
Назаров А. М. Формирование психологической устойчивости у студентов как теоретическая и практическая проблема	333
Pulatova G. M. Tojimatova G. G. o'smirlarda destruktiv xulq ko'rinishlarining ijtimoiy-psixologik sabablari	339
Qodirova D. M. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	355
Saidova N. I. O'quvchi yoshlarda jinsiy tarbiyaning psixofiziologik asoslari	364
Samarova Sh. R., Xudayqulova L. Ch. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni shakllantirishda art-terapiyaning o'rni (ertak terapiya miso lida)	369
Samarova Sh. R., Mirzayeva M. A., Xusanov A. R. "Talim sifatini rivojlantirishda inson kapitalining o'rni" mavzusidagi makolaga material	373
Sharapova S. Dj. Ideological views of young people against external threats; problems and solutions	383
Yuldasheva M. B. Ergasheva G. O. O'smirlarda kasbga moyillikning ijtimoiy-psixologik omillari	388
Yunusova G. S. O'smirlarda axborot manbalariga qaramlik shakllanishining ijtimoiy-psixologik jihatlari.	393

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARINI YECHISHGA O'RGGATISHDA INNOVATSION YONDASHUV

*Qosimov F. – Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti
Qosimova M. –Boshlang'ich ta'lim metodikai kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf matematika darslarida masalalar yechish jarayonida pedagogik ta'lim texnologiyalardan o'rinni va mazmunli foydalanish maqsadida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan masalalar aynan ikki son yig'indisi (yoki ayirmasiga) ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalarni yechishga o'rgatish metodikasi tahlil qilingan. Bunday tipdagi masalalarni xususiyatlari, ularni yechishdan oldin qisqa shartlarini tuzish texnologiyalari va masalalarni yechish usullari yoritilgan. Masalalarni bunday usulda tushuntirish, yechishga o'rgatish o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini o'stirish bilan birga mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi va fikrini erkin bayon qilishga o'rgatadi.

Kalit so'zlar: masala, arifmetik masala, arifmetik amal, misol, topshiriq.

Ключевые слова: задача, арифметическая задача, арифметика, пример, задание.

Keywords: matter; arithmetical task, arithmetical action, example, task

Аннотация: В процессе решения задач на уроках математики в начальных классах педагогическое образование в целях рационального и содержательного использования технологий анализируется методика обучения решению задач на нахождение этих чисел по сумме (или вычитанию) двух чисел, имеющих свои особенности. Освещаются особенности решения задач такого типа, технологии составления кратких условий перед их решением и методы решения задач. Объяснять задачи таким способом, учить решать их, развивать математические способности учащихся, а также развивать навыки самостоятельного мышления

Annotation: In the course of solving problems in primary school mathematics lessons, the methodology of teaching pedagogical education to solve problems related to finding these numbers according to the sum (or subtraction) of exactly two numbers of issues with specific characteristics for the purpose of appropriate and meaningful use of technologies was analyzed. Features of issues of this type, technologies for compiling short terms before solving them and methods for solving issues are covered. Explaining problems in such a way, teaching them to solve, together with cultivating the mathematical abilities of students, cultivates independent thinking skills and teaches them to express their opinion freely.

Boshlang'ich sinf matematika kursida juda ko'p yechiladigan masala ko'rinishlaridan biri ikki son yig'indisiga ko'ra shu sonlarni topishga doir, hamda ikki son ayirmasiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalardir. Ko'pchilik metodik manbalarda ikki son ayirmasiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalarni tipik masalalar sifatida qaralgan, ammo ikki son yig'indisiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar alohida tip sifatida qaralmagan. Hozirgi mavjud 4-sinf matematika (2020-yil) darsligida bunday tipdagi masalalar salmog'i ancha.

Ushbu maqolada yig'indiga ko'ra, hamda ayirmaga ko'ra noma'lumlarni topishga doir masalalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni bajarish metodikasi bilan atroficha tanishishga harakat qilamiz.

a) ikki son yig'indisiga ko'ra shu sonlarni topishga doir masalalar.

Ushbu tipdagi masala xususiyatlarini aytishdan oldin, shu tipga taaluqli quyidagi masalani qaraymiz.

Masala. Do'konda birinchi kuni 12 yashik, ikkinchi kun xuddi shunday 9 yashik pecheniy sotildi. Agar hamma sotilgan pecheniylar 210 kilogramm bo'lsa, birinchi kun necha kilogramm pecheniy sotilgan?

Ushbu masalani 4-sinf o'quvchilari bilan muhokama qilib yechish metodikasini keltiramiz.

Masala matnini o'zlashtirish yuzasidan o'qituvchi quyidagi savol-javoblarni o'tkazishi mumkin:

- Masalada nima haqida gap boradi?
- Do'konda sotilgan pecheniylar haqida gap boradi.
- Necha kun pecheniy sotilgan ekan?
- Ikki kun.
- Birinchi kun necha yashik pecheniy sotilgan ekan?
- 12 yashik.
- Ikkinci kun-chi?
- 9 yashik.
- Masalada yana nima ma'lum?
- Hamma sotilgan pecheniylar 210 kg ekanligi ma'lum.

Shu o'rinda yana shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik o'quvchilar masala matnidagi "xuddi shunday" so'z iborasiga e'tibor berishmaydi. O'quvchi, albatta, bu so'z birikmasi ma'nosini oydinlashtirish kerak.

-O'quvchilar masala matnini yaxshilab kuzatib yana nima berilganini aniqlang (o'quvchilar "xuddi shunday" so'zining ma'nosalqin qilishadi).

-Masala savoli bizdan nimani topishni talab qiladi?

-Birinchi kun necha kilogram pecheniy sotilganini, ushbu masala yechimini berish uchun qisqa sharti (modeli)ni keltiramiz:

1) qisqa yozuv ko'rinishida:

Ko'pchilik o'quvchilar masala qisqa shartining bu variantidan foydalanishadi. Bu shartda masala mazmunini oydinlashtiruvchi "xuddi shunday" iborasi o'z ifodasini topmagan. Yashiklardi pecheniylar massasi bir xilning inobatga olinyapti. Ya'ni birinchi do'konda sotilgan 12 yashik pecheniy va 2-do'konga sotilgan 9 yashik pecheniylardagi har bir yashikdagi pecheniylar massasi bir xil ekanligini o'quvchilar tushunishi kerak. Bunday tipdagi masala qisqa shartini jadval ko'rishi afzalligini o'quvchi yaqqol ko'radi.

	Yashiklar soni	1 yashik pecheniy massasi	Umumiyyat
1-kuni	12 yashik	bir xil	?
2-kuni	9 yashik		210 kg ?

Ushbu jadvalga ko'ra o'qituvchi masala muhokamasini sind o'quvchilari bilan o'tkazadi.

- Masala savoliga darhol javob bersa bo'ladimi?
- Yo'q.
- Nima uchun?
- 1 yashik pecheniy massasi noma'lum?
- Uni topsa bo'ladimi?

-Yo'q.

-Nima uchun?

-Jami yashiklar soni noma'lum;

-Uni topa oladimi?

-Ha, 12 yashikka 9 yashikni qo'shib;

-Endi 1 yashik pecheniy massasini topa oladimi?

-Ha, 210 kg ni (12+9)ga bo'lib;

-Endi masala savoliga javob bera olamizmi?

-Ha, 1 yashik pecheniy massasini yashiklar soniga ko'paytirib;

-Demak, masala necha ish bilan bajariladi?

-3 ish bilan, avval qo'shish, keyin bo'lish, so'ngra ko'paytirish amallari bilan.

Bu masalani analitik usulda yechish yo'lidir. Masala yechimini har bir amalni bajarib, izoh berish shaklida keltiramiz.

1) $12+9=21$ (yashik)-jami pecheniylar soni

2) $210:21=10$ (kg)-1 yashik pecheniy massasi

3) $10 \cdot 12=120$ (kg)-1-kun sotilgan pecheniy massasi

Agar 2-kun qancha pecheniy sotilgani so'ralsa, u holda uni 2 usulda topish mumkin.

a) $10 \cdot 9=90$ (kg)-2-kun sotilgan pecheniy massasi;

b) $210-120=90$ (kg)-2-kun sotilgan pecheniy massasi.

Endi masalaning to'g'ri yechimini tekshirish uchun 1-kun va 2-kun sotilgan yecheniylar massasini qo'shamiz:

$90+120=210$ (kg).

Bunday tipdag'i masalalarni yechish jarayonida ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilari, hatto ayrim o'qituvchilar ham bundan mustasno emas, metodik xatoga yo'l qo'yishlari amaliyotda tez-tez uchrab turadi. Ayniqsa, masala yechimidagi 3-sida $12 \cdot 10=120$ (kg)deb yozadilar. Bu javob to'g'ri bo'lsa hamki, $12 \cdot 10$ yozuv masala javobiga mos yozuv emas. 10 kg dan 12 yashik pecheniy bo'lishi uchun $10 \cdot 12=120$ (kg) yechimyozuvi to'g'ri yechimdir.

Shu masala yechilgach, masala qisqa sharti ifodalangan jadvalda berilganlarni o'zgartirib quyidagi shu tipga taaluqli masala tuziladi.

Masala. Do'konda birinchi kuni 120 kg, ikkinchi kuni 90 kg pecheniy bir xil yashiklarda sotildi. Agar ikki kunda 21 yashik pecheniy sotilgan bo'lsa, har kuni necha yashikdan pecheniy sotilgan?

Bu masala qisqa sharti:

Yashiklar soni	1 yashik pecheniy massasi	Umumiyyat massasi
----------------	---------------------------	-------------------

1-kuni

2-kuni ?

21 yashik

? Bir xil 120 kg

90 kg

Yechish: 1) $120+90=210$ (kg)-jami pecheniy massasi;

2) $210:21=10$ (kg)-1 yashik pecheniy massasi;

3) $120:10=12$ (yashik)-1-kun sotilgan pecheniy;

4) $90:10=9$ (yashik)-2-kun sotilgan pecheniy.

Javob: 12 yashik, 9 yashik.

Masala yechimi to'g'riliгини tekshirish uchun birinchi va ikkinchi kunlarda do'konda sotilgan pecheniy yashiklar sonini qo'shish kifoya.

12 yashik+9 yashik=21 yashik bu masala shartiga mos keladi.

Demak, masala yechimi to'g'ri topilgan.

Yuqorida mulohaza yuritib, yechilgan ikkala masala ham bir xil tip (ya'ni ikki son yig'indisiga ko'ra shu sonlarni topishga doir)ga taaluqli masalalardir. Endi bu tipga doir masalalarining xos jihatlarini aytib o'taylik.

-Masalada ikki son (yoki miqdor) yig'indisi beriladi, shu sonlar (miqdorlar)ni topish talab qilinadi.

-Masala matnini oydinlashtiruvchi "bir xil", "shunday" kabi so'zlar ishtirok etib masala yechimini topish imkoniyati bo'ladi.

-Masala qisqa shartini jadval, sxema ko'rinishida berish afzal bo'ladi.

-Masala yechimining dastlabki qadami qo'shish amali bilan boshlanadi.

b) Endi quyida ikki son (miqdor) ayirmasiga ko'ra noma'lumni topishga doir masalalar bilan tanishamiz.

Bu tipga mansub masalalar boshlang'ich sinf darsliklarida juda ko'p uchraydi. Bunday masalalar ustida ishslash bo'yicha tavsiyalarni quyidagi masalalar orqali bayon etishni joiz deb bildik.

Masala. Do'konda bir xil yashiklarda birinchi kuni 12 yashik, ikkinchi kuni 9 yashik pecheniy sotildi. Agar birinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda 30 kg ortiq pecheniy sotilgan bo'lsa, har kuni necha kilogrammdan pecheniy sotilgan?

Ushbu masala yuzasidan mulohaza yuritib, masaladagi berilganlar, izlanadiganlar va masala mazmunini oydinlashtiruvchi "bir xil yashiklarda" iboralarni o'quvchilardan so'rab masala qisqa sharti tuziladi.

Masala qisqa shartini jadvalda berish ma'qul.

	Yashiklar soni	1 yashik pecheniy massasi	Umumiy massa
1-kuni	? , 3 yashik ortiq	Bir xil	120 kg
2-kuni	?		90 kg

Masala muhokamasi davom ettirib masala yechish rejasini tuziladi.

Masala shartidan shu narsa oydinlashdiki, birinchi kuni ikkinchi kundiagidan ko'p pecheniy sotilgan. Buni jadvaldagagi umumiy massada ko'rish mumkin. Bu ortiqcha massa ortiqcha yashikdagi pecheniylar hisobida bo'lgan. Yana shuni ta'kidlash joizki, do'konda sotilgan pecheniylar bir xil yashiklarda joylangan. Demak, birinchi ikki kunda sotilgan pecheniylar joylashtirilgan yashiklar sonlar farqi aniqlanadi. Ikkinci qadam ish 1 yashik pecheniy massasi aniqlanadi. Uchinchi va to'rtinchchi qadamlarda esa 1-kun va 2-kun sotilgan pecheniylar massasi topiladi. Demak, masala 4 ish bilan yechiladi. 1-ish ayirish, 2-ish bo'lish, 3-ish ko'paytirish, 4-ish ko'paytirish.

Masalani savol qo'yib yechimini yozish qismida rasmiylashtiramiz.

1) Birinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda necha yashik ortiq pecheniy sotilgan?
12-9=3 (yashik)

2) Bir yashik pecheniy necha kilogram? $30:3=10$ (kg)

3) Birinchi kuni necha kilogram pecheniy sotilgan? $10 \cdot 12 = 120$ (kg)

4) Ikkinci kuni necha kilogram pecheniy sotilgan? $10 \cdot 9 = 90$ (kg)

Masala yechimlari to'g'riliqi tekshiriladi: $120-90=30$ (kg)-masala shartiga mos keladi.

Javob: 120 kg; 90 kg.

Ushbu masala yechimini yozish jarayonida o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan metodik xato haqida to'xtalib o'tish joiz. Masala yechimining 3-va 4-ishlarida o'quvchilar quyidagi yozuvni keltirishlari mumkin.

3) $12 \cdot 10 = 120$ (kg)

4) $9 \cdot 10 = 90$ (kg)

Bu yechim yozuvi masala matniga mos yozuv emas. Chunki, $12 \cdot 10$ bu 12 kg dan 10 yashik, $9 \cdot 10$ bu 9 kg dan 10 yashik ma'nolarini ifodalaydi. Yuqorida berilgan masala to'liq yechimi masala matniga mos bo'lib, to'g'ri yechim yozilishini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan masala matnidagi berilganlarni o'zgartirish yo'li bilan tuzilmasi quyidagi masalani qaraylik.

Masala. Do'konda birinchi kuni 120 kilogramm, ikkinchi kuni 90 kilogramm pecheniy sotildi. Pecheniylar bir xil yashiklarda joylangan bo'lib, birinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda 3 yashik ortiq pecheniy sotilgan. Do'konda har kuni necha yashiklardan pecheniy sotilgan?

Bu masala ham ikki miqdor (son) farqiga ko'r'a shu miqdor (son)larni topishga doir tipga mansub masaladir.

Masala qisqa sharti:

Yashiklar soni 1 yashik pecheniy massasi Umumiy massa

1-kuni

2-kuni ?, 3 yashik ortiq

? Bir xil 120 kg

90 kg

Masala mulokama qilib yechiladi. Masala yechimini savol-javob tariqasida keltiramiz:

1. Birinchi kuni ikkinchi kunga qaraganda necha kilogram ortiq pecheniy sotilgan? $120 - 90 = 30$ (kg)

2. Bir yashik pecheniy necha kilogram? $30 : 3 = 10$ (kg)

3. Birinchi kuni necha yashik pecheniy sotilgan? $120 : 10 = 12$ (yashik)

4. Ikkinci kuni necha yashik pecheniy sotilgan? $90 : 9 = 10$ (yashik)

Javob: 12 yashik, 9 yashik.

Yuqorida keltirilgan masala va uning yechimlaridan ikki son (miqdor) ayirmasiga ko'r'a shu son (miqdor)larni topishga doir masalalarining o'ziga xos jihatlarini keltiramiz:

-Masalada ikki son (yoki miqdor) ayirmasi beriladi, shu son (miqdor)larni topish talab qilinadi.

-Masala "shunday", "bir xil", "xuddi shunday" kabi so'z birikmalari uchraydiki, u masala mazmunini oydinlashtirishga yordam beradi.

-Masala qisqa shartini jadval, sxema ko'rinishlarda berish masala yechimini to'g'ri tanish imkoniyatini beradi.

-Masala yechimini dastlabki qadami ayirish amali bilan bog'lanadi.

Ushbu tiplarga mansub masalalar turkumida, hayotda tez-tez uchraydi. Shu sababli bunday masalalarni yechishga o'rgatish orqali o'quvchilarda mulohaza yuritish, ijodiy fikrlash kabi aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Zero, o'quvchi masala yechishga kirishar ekan, u masalaning matnini o'zlashtirish jarayonining o'zida masalaning mantiqan to'g'ri tuzilganligi, uning yechimi mavjud yoki yo'qligining fahmlaydi.

Yuqoridagi tilarga doir masala yechish jarayonida o'quvchilarga quyidagi masalalar to'g'risida fikr yurishlarini so'rash, shu tipga doir masalalar yechish ko'nikmasini fikrlash doirasini kengaytiradi. Mulohaza yuritish, xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Masala. 1) Tegirmonga 39 qop bug'doy va 27 qop arpa keltirildi. Tegirmonga arpaga qaraganda 840 kg ko'p bug'doy keltirildi. Tegirmonga necha kilogram bug'doy va necha kilogram arpa keltirilgan?

2) Tegirmonga 39 qop bug'doy va 27 qop arpa keltirildi. Agar tegirmonga jami 4620 kg bug'doy va arpa keltirilgan bo'lsa, necha kilogram bug'doy va necha kilogram arpa keltirilgan?

Bu ikki masala xuddi yuqorida ko'rsatilgan masalalar turiga o'xshab ketadi. O'quvchilarga bu masalalar berilganda, ko'pchilik o'quvchilar bu masalani yechishga harakat qilib, masla yechimi variantlarini berishadi. O'quvchilar tomonidan keltirilgan yechim variantlarini keltiramiz.

1-masala yechimi: 1. $39-27=12$ (qop)

2. $840:12=70$ (kg)

3. $70 \cdot 39 = 2730$ (kg)

4. $70 \cdot 27 = 1890$ (kg)

2-masala yechimi: 1. $39+27=66$ (qop)

2. $4620:66=70$ (kg)

3. $70 \cdot 39 = 2730$ (kg)

4. $70 \cdot 27 = 1890$ (kg)

Bu yechim variantlari to'g'ri bo'ladi, agar masala matnida keltirigan qoplar bir xil massasi bo'lsa. Ya'ni masalalar matnida qoplar massasi bir xilligi aytilmagan. Shu sababli har ikkala masala yechimga ega emas. Yechimga ega bo'lishi uchun masala matnlarida "bir xil qoplarda" iborasini kiritish lozim.

O'quvchilarga bunday masalalarni tavsiya qilib, masala mazmunidagi oydinlashtiruvchi, masala yechimi bo'lishi uchun kerakli so'z birikmalarini kiritib, to'liq yechishga ega bo'ladigan masala matnlarini tuza bilishga o'rgatish ham o'quvchi ijodiy faolligi oshiruvchi vosita hisoblanadi.

Umuman olganda ikki son (miqdor) yig'indisiga ko'ra, yoki ikki son (miqdor) ayirmsiga ko'ra shu son (miqdor)larni topishga doir masalalar o'quvchilarning matematik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Qosimova, M. M., & Usmonova, Z. U. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFDA MATEMATIKA O 'QITISH JARAYONIDA O 'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO 'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH. PEDAGOGS jurnali, 1(1), 75-77.
2. Qosimov, F. M., & Qosimova, M. M. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY O 'QUV TOPSHIRIQLARINING METODIK XUSUSIYATLARI. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(2), 206-211.
3. Qosimov, M. F., & Kasimov, F. F. (2021). Methods of teaching to solve non-standard problems. Middle European Scientific Bulletin, 11.
4. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 358-362.
5. QOSIMOVA, M. (2020). ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS: ON SOME TYPICAL PROBLEMS TO BE SOLVED IN PRIMARY SCHOOLS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2(2).
6. Muhammedovich, Q. F., & Muhammedovna, Q. M. (2022). BOSHLANG'ICH SINFDA ORTA ARIFMETIK SONNI TOPISHGA DOIR MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH METODIKASI. БАРҚАРОРЛИК ВА ЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(4), 358-362.
7. Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. TECHNOLOGY OF WORK ON COMPARISON TASKS.



Журнал Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан 2020 йил 6
октябрда ўтган.

Журнал ҳар ойда бир марта ўзбек, рус ва инглиз тилларида нашр
этилади.

Журналнинг ҳажми 60x84, 1/8, А-4;

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» халқаро илмий-методик журнали
2020 йил октябрдан нашр этилмоқда.

Педагогика, психология, филология ва тилшунослик, математика,
физика ва механика, техника фанлари, табиатшунослик, тарих ва фал-
сафа, туризм ва иқтисодиёт, ахборот коммуникацион технологиялари,
география соҳалардаги илмий ва илмий-услубий материалларни ўз ичи-
га олади. Нашр қилинган материаллар муаллифлари Ўзбекистон Респубу-
бликаси ҳамда яқин ва узоқ хорижнинг етакчи олимлари, тадқиқотчи-
изланувчилари.

Журналнинг калит сўзлари:

Олий педагогик таълим назарияси ва амалиёти; умумий
ва маҳсус педагогика ва психология, педагогика ва инновация,
интеграция, Ўзбекистон, Россия ва хорижий мамлакатларнинг таълим
тизими; таълим жараёни; кўп маданиятли ва минтақавий таълим; III
Ренессанс, XXI асрдаги таълим; таълим ва тарбия соҳасидаги миллый
ва қадрият устуворликлари; таълим сифатини мониторинг қилиш; уз-
луксиз педагогик таълим тизими; таълим дастурлари; умумий ўрта ва
ўрта маҳсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартлари;
ўқитувчиларни тайёрлаш тизимидағи таълим технологиялари.

Гувоҳнома рақами № 8882
Бош муҳаррир: Б.Б.МАЪМУРОВ

Босишга рухсат этилди 28.03.2023. Буюртма №3347.
«Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди.

ISSN 2181-1717 (E)



ISSN 2181-1709 (P)



